

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektori Sh.A.Boymurodov

2025 yil « 09 » 08

Ro'yxatga olindi:

№ Bakalavriat

D.-60910200-1.01; M.-60410800-1.06;

OHI-60910600-1.01; FT.-60910700-1.01;

TP.-60910400-1.01; BTM.-60711100-1.07

F 60910800 1.01; FT

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
O'QUV (MODUL) DASTURI**

(barcha ta'lim yo'nalishlari uchun)

Fan/Modul kodi O'T1104		O'quv yili 2025/2026	Semestr 1-2	ECTS/Kreditlar 4
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg'ulotlar (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbekistonning eng yangi tarixi	60	60	120
2.	I.Fanning/Modulning mazmuni 1.1.Fanni/Modulni o'qitishdan maqsad – milliy tarix, milliy g'urur va iftixor manbai hisoblanishini yosh avlod ongiga singdirish, ularda tarixiy xotira, tarixiy tafakkur ko'nikmasini tarbiyalash milliy g'oya va yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish ularni o'z xalqi va Vataniga sadoqat, amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining ongli faol ishtirokchisi bo'lish ruhida fikrlash va yashashga o'rgatishdan iborat. 1.2.Fanning/Modulning vazifasi – tarixiy-madaniy jarayonlarni xolisona hamda manbalarga tayangan holda tahlil qilish, ularning sabablari va mohiyatini ochib berish; yoshlarimizda o'zini anglash, vatanparvarlik, tarixiy qadriyatlarga hurmat, boy tariximizni qadrlash fazilatlarini shakllantirish; mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish, turli sohalaridagi islohotlar, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv bilan bog'liq tarixiy jarayonlar, voqea va hodisalarni yoshlar ongiga tarixiy haqiqat tamoyillari asosida yetkazish. II. Fan/Modul o'qitilishining natijalari Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: -jamiyatning yaxlit tarixiy-ijtimoiy tizimligini; -davlat va jamiyat munosabatlarini; -insoniyatning paydo bo'lishi, antropogonez jarayonlarini; -ijtimoiy hodisalar va muammolarga tarixiy yondashishni; -davlatchilik taraqqiyotning asosiy omillarini; - xalqimizning necha ming yillik bunyodkorlik sa'y-harakatlarini haqida tasavvurga; -fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari; -o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, xalqimizning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi; -O'zbekiston tarixining asosiy davrlari va taraqqiyoti tadrijiy bosqichlari, ularning uzviy bog'liqligi va davomiyligi, tarixiy voqealar vorisiyligi; -mustamlakachilik va sovet mustabid davrida O'zbekistonning turli –			

sohalari rivojlanishiga qarshi siyosat va ularning ayanchli oqibatlari;
 -turli davrlarda ozodlik yo'lida amalga oshirilgan kurashlar hamda vatanparvarlik jasoratlari;
 -O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi, rivojlanishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqida ***bilimga***;
 -Vatanimiz tarixi bo'yicha o'z tarixiy tafakkurini boyitib borish va tarixiy haqiqat tamoyillari asosida tarixiy voqealar va jarayonlarni tahlil qila bilish;
 -O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ekanligini teran his qila olish;
 -ajdodlarimiz ibratli hayoti va faoliyati bilan faxrlanish va vatanparvarlikni namoyon eta olish;
 -o'z fikr-mulohaza va xulosalarini asosli tarzda aniq bayon eta olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).***

III.Asosiy nazariy qism

3.1. Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati:

1. mavzu. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" modulining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" modulining dolzarb masalalari va nazariy-metodologik asoslari. Fanning maqsad va vazifalari. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishdagi manbalar va davrlashtirish masalasi. Bo'lajak shifokorlar uchun fanni o'rganishning ahamiyati.

2. mavzu. O'zbekistonning davlatchilik tarixi (Eng qadimgi davrdan XVI asr davlatchiligi) "Davlatchilik" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Davlatlarda tashkil topishidagi asosiy omillar. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi davlatlar: Qadimgi Baqtriya podsholigi va Qadimgi Xorazm. Yurtimizda o'rta asrlar davlatchiligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. Arab xalifaligidan keyingi markazlashgan mustaqil davlatlar. Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashgan qahramon shaxslar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti.

3. mavzu. O'zbekistonning davlatchilik tarixi (XVII asr davlatchiligidan Yangi O'zbekiston davlatchiligi). O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabab va oqibatlari. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Fidoyi jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati va ularning o'lka ma'rifiy va madaniy hayotida tutgan o'rni. Sovet hukmronligi davrida O'zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Sovetlarning qatag'on-zo'ravonlik siyosati va uning mohiyati. Milliy davlatchilikka erishishdagi ilk qadamlar. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi davlatchiligi.

4. mavzu. Buyuk Ipak yo'li va hozirgi zamon. O'zbekistonning

turizm salohiyati. Buyuk ipak yo‘lining tarixiy shakllanishi va asosiy yo‘nalishlari. Hozir O‘zbekistonning Buyuk ipak yo‘li takomilidagi tutgan o‘rni. Qadimgi savdo yo‘llari. Buyuk ipak yo‘li terminining fanga kiritilishi. Buyuk ipak yo‘lining tarixiy va zamonaviy ahamiyati. Mustaqillik yillarida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va mexanizmlari. Respublikaning geografik joylashuvi va turizmga ta'siri. O‘zbekistonning turistik salohiyati va imkoniyatlari. Bu borada tashkil etilgan muassasa va idoralar. Turizm borasida olib borilgan islohotlar mazmuni. Uning YaIMdagi ulushi. Turizmni yanada rivojlantirish istiqbol maqsadlar mazmuni.

5. mavzu. O‘zbekiston tarixida renessans davrlari. Umuman, Sharq xalqlari hayotida ro‘y bergan renessans davrlari. Birinchi va ikkinchi renessans. O‘zbekistonning yevropa mamlakatlari renessansiga asos bo‘lish omillari. Bu davrdagi fan, san‘at, adabiyot, arxitektura rivoji va ularning jahon sivilazatsiyasidagi o‘rni. Sharqning buyuk daholari va ularning ilmiy kashfiyotlari. Aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlardagi tub burilishlar. Islom madaniyati, buyuk hadisshunos olimlar. Uchinchi renessans tushunchasi, uning avvalgi renessanslar bilan uzviy bog‘liqligi. Uchinchi renessansning dunyoviy va diniy asoslari, mamlakatimizda olib borilgan islohotlar mazmuni hamda ularning uchinchi renessansga poydevor bo‘lishi. Renaissance davrlarining farqli tomonlari va o‘zaro uyg‘unligi. Yangi O‘zbekistondagi ilm fan kashfiyotlari. Renaissance davrlarining insoniyat hayotidagi ahamiyati.

6. mavzu. O‘zbekistonda 80-90 yillaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat: paxta yakka hokimligi va qatag‘onliklar. Mustabid tuzum davrida byurokratik boshqaruv. Turg‘unlik yillari. Qatag‘onlik siyosatining muhim bosqichlari va ularning mazmun-mohiyati. 80-90 yillarda O‘zbekistondagi siyosiy vaziyat. Sh.Rashidov faoliyati. Paxta yakkahokimligining kuchayishi. Mustabid tuzum davrida O‘zbekiston sanoati va qishloq xo‘jaligi. Taraqqiyotda tanazzulning kuchayishi. Qayta qurish siyosati va uning mazmuni.

7. mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo‘li. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi. Prezidentlik institutining joriy etilishi. I.Karimovning rahbar etib tayinlanishi. Farg‘ona fojealari. 1991 yil avgust voqealari. Mustaqillikka tomon harakat. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish. O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Davlat ramzlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. Mulkdorlar sinfining shakllantirilishi. Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati tushunchalarining mazmun-mohiyati.

8. mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda fan, ta'lim, sport, san'at, adabiyot va sog‘liqni saqlash tizimi rivoji. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda fan va ta'limni takomillashtirish imkoniyatlari, bu borada olib borilgan islohotlar mazmuni. “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonunning

qabul qilinishi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va milliy modeli. Respublikadagi oliy ta'lim tizimi. San'at, adabiyot, sport, madaniyat sohasidagi yangilanishlar, muammo va yutuqlar. Inson salomatligini saqlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, olib borilgan islohotlar mazmuni. Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga yangicha yondashuv. Tibbiy kadrlar masalasi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish istiqbollari.

9. mavzu. O'zbekistonda milliy qadriyatlar va tarixni tiklash borasidagi islohotlar mazmuni. "Qadriyat" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Milliy va umumbashariy qadriyatlar. Gumanizm, demokratizm, internatsiolizm g'oyalarining mohiyati. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari. Globallashuvda qadriyatlarni saqlashga ehtiyojning ortishi. Tarix-xalq ma'naviyati asosi iborasining mazmuni. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar va tarixni tiklash borasida olib borilgan islohotlar. Yoshlar ongida tarixiy ongni shakllantirish masalalari

10. mavzu. O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlashning demokratik asoslari. "Qonun" tushunchasi va uning turlari. Qonunning qonuniyatdan farqi. O'zbekiston Respublikasidagi joriy qonunlar. Qonun ustuvorligini ta'minlashda davlat, nodavlat notijorat organlar, ta'lim muassasalarining o'rni. Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik taraqqiyotning muhim sharti va zaruriyati ekanligi. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish mexanizmlari. Qonun ustuvorligini ta'minlashning qonuniy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati.

11. mavzu. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va asosiy mazmuni. Barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda aholining demografik o'sishi va bunda yoshlar ulushi. "Barkamol avlod" tushunchasining mazmun-mohiyati. Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi uchun yaratilayotgan shart sharoitlar va imkoniyatlar. Yosh tadbirkorlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning mazmun- mohiyati va bu borada olib borilgan ishlar. Yoshlarni turli tajovuzkor illatlardan himoya qilish mexanizmlari. Respublikada Yoshlar oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

12. mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'zbekiston Respublikasining jahon davlatlari tomonidan tan olinishi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekistonning BMT va boshqa nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lishi. Butunjahon va mintaqaviy hamkorlik. Hamkorlikdan ko'zlangan maqsadlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi mazmuni, O'zbekiston tomonidan berilayotgan takliflar. Jahon davlatlari bilan bir va ko'p tomonlama hamkorlik istiqbollari. O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro sammit va forumlar mazmuni. O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik. O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlarga ko'rsatayotgan gumanitar ko'magi. Tashqi siyosatni takomillashtirish prinsiplari.

13. mavzu. O‘zbekistonda tolerantlik va millatlararo totuvlikni ta’minlashning tarixiy ildizlari va demokratik prinsiplari. “Tolerantlik” tushunchasi. Uning mazmuni. O‘zbekistonda qadimdan millatlar diasporologiyasi. O‘zbekistonda yashayotgan millatlar tarkibi va statistikasi. O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlashning qonuniy-huquqiy asoslari. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar va madaniy markazlar. Tolerantlik va millatlararo totuvlikni ta’minlashning demokratik prinsiplari. “Shu aziz Vatan barchamizniki” shoirining amaliy ahamiyati.

14. mavzu. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning asosiy mazmun-mohiyati. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g‘oyasi va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni. “Yangilanayotgan O‘zbekiston”, “Uchinchi renessans”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” tushunchalarining mazmun- mohiyati. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini asosiy mazmuni va maqsadlari. Uning bosh g‘oyasi. “Inson qadri uchun” tamoyilining ahamiyati. Mamlakatimizda barcha sohalarida olib borilayotgan demokratik islohotlar mazmuni va ularning ahamiyati. Istiqbol reja va imkoniyatlar.

15. mavzu. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va unda belgilangan vazifalarning asosiy mazmuni. “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora- tadbirlar:

O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. “Biznes yuritish indeksi”, Boshqaruv sifati indiktorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korrupsiyani qabul qilish indeksi”, “Logistika samaradorligi indeksi”, “Jahon bankining Statistika salohiyat indeksi”, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi. “Inson kamoloti indeksi”, “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi”, “Matbuot erkinligi indeksi” va boshqalar.

IV. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

4.1.Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

1-mavzu. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” modulining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” modulining dolzarb masalalari va nazariy-metodologik asoslari. Modulning maqsad va vazifalari. O‘zbekistonning eng yangi tarixini

o'rganishdagi manbalar va davrlashtirish masalasi. Bo'lajak shifokorlar uchun modulni o'rganishning ahamiyati.

2-mavzu. O'zbekistonning davlatchilik tarixi (Eng qadimgi davrdan XVI asr davlatchiligi). "Davlatchilik" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Davlatlarda tashkil topishidagi asosiy omillar. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi davlatlar. Yurtimizda o'rta asrlar davlatchiligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. Arab xalifaligidan keyingi markazlashgan mustaqil davlatlar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti.

3-mavzu. O'zbekistonning davlatchilik tarixi(XVII asr davlatchiligidan Yangi O'zbekiston davlatchiligi). O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabab va oqibatlari. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Milliy ozodlik harakatlari. Sovet hukmronligi davrida O'zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Milliy davlatchilikka erishishdagi ilk qadamlar. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi davlatchiligi.

4-mavzu. Buyuk Ipak yo'li va hozirgi zamon. O'zbekistonning turizm salohiyati. Buyuk ipak yo'lining tarixiy shakllanishi va asosiy yo'nalishlari. Buyuk ipak yo'lining tarixiy va zamonaviy ahamiyati. Mustaqillik yillarida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va mexanizmlari. O'zbekistonning turistik salohiyati va imkoniyatlari. Turizm borasida olib borilgan islohotlar mazmuni.

5-mavzu. O'zbekiston tarixida renessans: asosiy bosqichlari va rivojlanish omillari. Birinchi va ikkinchi renessans. Bu davrdagi fan, san'at, adabiyot, arxitektura rivoji va ularning jahon sivilazatsiyasidagi o'rnini. Sharqning buyuk daholari va ularning ilmiy kashfiyotlari. Aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlardagi tub burilishlar. Islom madaniyati, buyuk hadisshunos olimlar. Uchinchi renessans tushunchasi, uning avvalgi renessanslar bilan uzviy bog'liqligi.

6-mavzu.O'zbekistonda 80-90 yillaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat: paxta yakka hokimligi va qatag'onliklar. Mustabid tuzum davrida byurokratik boshqaruv. Turg'unlik yillari. Qatag'onlik siyosatining muhim bosqichlari va ularning mazmun-mohiyati. 80-90 yillarda O'zbekistondagi siyosiy vaziyat. Sh.Rashidov faoliyati. Paxta yakkahokimligining kuchayishi. Mustabid tuzum davrida O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi. Taraqqiyotda tanazzulning kuchayishi. Qayta qurish siyosati va uning mazmuni.

7-mavzu. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqillikka qo'yilgan ilk qadamlar. 1991 yil avgust voqealari. Mustaqillikka tomon harakat. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li.

8-mavzu.Mustaqillik yillarida O'zbekistonda fan, ta'lim, sport,

san'at, adabiyot va sog'liqni saqlash tizimi rivoji. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda fan va ta'limni takomillashtirish imkoniyatlari, bu borada olib borilgan islohotlar mazmuni. Respublikadagi oliy ta'lim tizimi. San'at, adabiyot, sport, madaniyat sohasidagi yangilanishlar, muammo va yutuqlar. Inson salomatligini saqlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, olib borilgan islohotlar mazmuni.

9-mavzu. O'zbekistonda milliy qadriyatlar va tarixni tiklash borasidagi islohotlar mazmuni. "Qadriyat" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Milliy va umumbashariy qadriyatlar. Gumanizm, demokratizm, internatsiolizm g'oyalarining mohiyati. O'zbek xalqining milliy qadriyatlari. Globallashuvda qadriyatlarni saqlashga ehtiyojning ortishi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar va tarixni tiklash borasida olib borilgan islohotlar. Yoshlar ongida tarixiy ongni shakllantirish masalalari.

10-mavzu. O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlashning demokratik asoslari. Korrupsiya va unga qarshi kurashishning mazmun mohiyati. "Qonun" tushunchasi va uning turlari. O'zbekiston Respublikasidagi joriy qonunlar. Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik taraqqiyotning muhim sharti va zaruriyati ekanligi. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish mexanizmlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning ahamiyati.

11-mavzu. O'zbekistonda yoshlar siyosati va uning ahamiyati. Barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari. "Barkamol avlod" tushunchasining mazmun-mohiyati. Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi uchun yaratilayotgan shart sharoitlar va imkoniyatlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning mazmun- mohiyati va bu borada olib borilgan ishlar. Yoshlarni turli tajovuzkor illatlardan himoya qilish mexanizmlari. Respublikada Yoshlar oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi.

12-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekistonning BMT va boshqa nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi mazmuni, O'zbekiston tomonidan berilayotgan takliflar. O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik. O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlarga ko'rsatayotgan gumanitar ko'magi.

13-mavzu. O'zbekistonda tolerantlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashning tarixiy ildizlari va demokratik prinsiplari. "Tolerantlik" tushunchasi. Uning mazmuni. O'zbekistonda qadimdan millatlar diasporologiyasi. O'zbekistonda yashayotgan millatlar tarkibi va statistikasi. O'zbekistonda millatlararo totuvlikni ta'minlashning qonuniy-huquqiy asoslari. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar va madaniy markazlar. Tolerantlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashning demokratik prinsiplari.

14-mavzu. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uning mazmuni. "Inson qadri uchun" g'oyasining ahamiyati. 2017-2021 yillarda


	O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel). Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini asosiy mazmuni va maqsadlari. “Inson qadri uchun” tamoyilining ahamiyati. 15-mavzu. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va unda belgilangan vazifalarning asosiy mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Logistika samaradorligi indeksi”, “Jahon bankining Statistika salohiyat indeksi”, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi. “Inson kamoloti indeksi”, “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi”, “Matbuot erkinligi indeksi” va boshqalar. V.Fanni/Modulni o‘qitish davomida egallanadigan kompetensiyalar va amaliy ko‘nikmalar. (mavjud emas) VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. O‘zbek davlatchiligi tarixi: yurtimizdagi eng qadimgi davlatlar 2. O‘zbek davlatchiligi tarixi: O‘rta asrlar davlatchiligi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi 3. Milliy davlatchilikni barpo etishdagi harakatlar: Jadidchilik 4. Mustabid tuzum davrida O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosatining asosiy bosqichlari 5. 80-90 yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol 6. Buyuk Ipak yo‘lining shakllanish tarixi 7. Buyuk ipak yo‘lining davlatlararo hamkorlik va turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati 8. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining uyg‘onish davri: ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot. 9. Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosining o‘rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida). 10. O‘rta Osiyolik allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi: Muso al-Xorazmiy. 11. Abu Rayxon Beruniyning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi 12. Abu Ali Ibn Sino ijodi va faoliyati 13. “Tib qonunlari” asarining olamshumul ahamiyati 14. Abu Nasr Forobiy asarlarini o‘rganishning dolzarbligi 15. Islom madaniyatining tarkib topishi va rivojlanishi 16. Markaziy Osiyolik buyuk hadisshunos olimlar va ularning islom madaniyatiga qo‘shgan hissasi
--	---

17.	A.Temur va Temuriylar davri renessansi
18.	“Temur tuzuklari” va uning hozirgi davrdagi ahamiyati
19.	Mirzo Ulug‘bekning jahon ilm-fani rivojida tutgan o‘rni
20.	O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasi rivoji va istiqbol imkoniyatlar.
21.	O‘zbekiston ilm-fani: yangilanish va yutuqlar
22.	O‘zbekistonda sport.
23.	O‘zbekistonda madaniy sohalarni rivojlantirishning asosiy mazmuni
24.	O‘zbekistonda muzeylar faoliyati
25.	O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va tarixni tiklash borasida amalga oshirilgan islohotlar mazmuni.
26.	Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
27.	Qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar.
28.	O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.
29.	Milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.
30.	O‘zbekistonda 50-70 yillarda paxta yakkahokimligining kuchayishi va ekologik muammolarning kelib chiqishi.
31.	O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida.
32.	Qonun ustuvorligi ta'minlashning asosiy mezonlari
33.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-huquq va erkinliklar kafolati
34.	“Korrupsiya” tushunchasi va uning mazmun mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy mexanizmlari
35.	O‘zbekiston Respublikasida inson salomatli oliy qadriyat sifatida.
36.	O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi.
37.	O‘zbekistonda hokimiyatlarning bo‘linish tamoyili va konseptual asoslari.
38.	O‘zbekistonda davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro munosabatlari.
39.	O‘zbekistonda ekologik muammolarni bartaraf etishning konseptual asoslari
40.	O‘zbekistonda axborot sohasini isloh qilish, so‘z va axborot erkinligi. OAV faoliyati
41.	O‘zbekistonda tibbiy turizimni rivojlantirish maqsadlari.
42.	Xalq qabulxonalari ijtimoiy institut sifatida.
43.	O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosati va uning mohiyati
44.	O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati
45.	“Sivilizatsiya” va “Madaniyat” tushunchalari mazmuni va ularning tarixiy taraqqiyotda namoyon bo‘lishi
46.	Mustaqillik yillarida shaharsozlik: tarixiy bosqichlar va rivojlantirish istiqbollari
47.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus va uning amalga tatbiq etilishi
48.	O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash

	49. O‘zbekiston Respublikasida erkin saylovlarni amalga oshirish prinsiplari 50. O‘zbekiston Respublikasi mudofaa qobiliyati 51. O‘zbekistonda madaniy ob'ektlar va ularning faoliyati tasnifi 52. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni innovatsion rivojlantirish va raqamlashtirish odimlari 53. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar. 54. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlari. 55. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni. 56. “Tolerantlik” tushunchasining mazmun-mohiyati va mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati. 57. Millatlararo totuvlik-yurt farovonligi garovi 58. “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi va uning mazmun mohiyati 59. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining asosiy mazmuni 60. O‘zbekiston – xalqchil, ijtimoiy davlat g‘oyasining mohiyati. <i>Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:</i> - Belgilangan nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish; - Berilgan mavzu bo‘yicha doklad tayyorlash; - Mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha konspekt yozish; - Modulning mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha ishlash va ma’ruzalar qilish; - Ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarni tayyorlash; - Grafik organayzer ishlab chiqish va to‘ldirish; - Krossvordlar tuzish va yechish; - Mavzularga doir illyustratsiyali tarqatma matiriallar masalalar tayyorlash; - Mustaqil o‘qigan ma’lumotlaridan taqdimot tayyorlash. <i>Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:</i> Modul bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi. Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: - auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko‘nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish daftarlarida aks ettirish; - aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, bolalarni yoshi va sog‘lig‘iga bog‘liq ovqatlantirish tamoyillari haqida suhbat va ma’ruzalarni o‘tkazish; - o‘tilgan mavzuni chuqur o‘rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari
--	--

	bilan faol ishlash; - ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish; - fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish; - mustaqil ta'limni topshirish muddati o'tgach vazifalar qabul qilinmasligini, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi doimo yodda tutish; - kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish.
3.	VII.Fanni/Modulni o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari va metodlari • Interfaol o'yinlar; • Seminar(mantiqiy fikrlash, teskor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
4.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha yozma yoki og'zaki va test ishni muvaffaqiyatli topshirish.
5.	IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar, hamda axborot manbalari ro'yxati 9.1.Asosiy adabiyotlar: 1. Eshov B.J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024. 2. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. 3. Norqulov D.T. Iskandarov Sh.A. Niyozova N.Sh. O'zbekistoning eng yangi tarixi. // Fan va ta'lim nashriyoti Toshkent – 2023. 4. O'zbekistan tarixi: darslik 1-2 tom // Mas'ul muharrir va ijodiy guruh, rahbari R.X.Murtazaeva. va boshq. — Toshkent: Yanga asr avlodi, 2015. 5. O'zbekiston tarixi. Sagdullayev A.S. umumiy tahriri ositida. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.

	6. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Murtazayeva R.H. Yermetov A.A. Odilov A.A. va boshq. - Toshkent, 2024. 7. Саипова. К.Д. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). –Ташкент: NIF MSH, 2024. 8. Ниёзова Н.Ш. Искандаров Ш.А. Новейшая история Узбекистана // Учебное пособие // ооо «Tib nashr», Ташкент-2024 г 9.2.Qo'shimcha adabiyotlar: 1. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: Abdullaev R. Rajabov Q. Rahimov. M. Darslik.- Toshkent: O'zbekiston, 2019. 2. O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir R.H.Murtazayeva. Darslik. – Toshkent, 2020. 3. To'xtaboyeva. D.T. O'zbekistonning eng yangi tarixi: ma'naviy yangilanish, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2021. 4. Oblamurodov. N. Tolipov. F. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022. 5. Insopov. A.A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet. 2023. 6. Alimardonov. O.Q. O'zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari (o'quv qo'llanma). - Toshkent, FAST SUPPORT AND RESULT, 2023. 7. Дорошенко. Т.И. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие).Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023. 8. Иноятова. Д.М. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023. 9.3.Internet saytlari 1. www.ziyounet.uz. 2. www.edu.uz. 3. www.google.uz. 4. www.gov.uz.
6	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat tibbiyot universitetining 09.08.2025 yildagi 167-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. O'quv-uslubiy departament boshlig'i F.X.Azizova I-Davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov

2-Davolash fakulteti dekani		A.A. Inazarov
Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti dekani		Q.E. Shomurodov
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekani		F.I. Salomova
Tuzuvchilar: FIO	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni	
N.Sh. Niyozova	TDTU Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti f.f.n.	
Sh.A. Iskandarov	TDTU Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti PhD	
Taqrizchilar: FIO	Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni	
Ichki taqrizchi O'M. Abilov	TDTU Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, f.f.d	
Tashqi taqrizchi R.I. Xoliqova	Toshkent davlat tehnika universiteti «O'zbekis tarixi» kafedrası mudiri, t.f.d., professor.	